

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi – 2019-yil yakunlari

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

190 356,0 mlrd. so'm



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

112,5 %



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

110,4 %



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi


5 668,6 ming so'm

Xizmatlar sohasi — bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Hozirgi kunda intellektual inson mehnati o'ziga xos rivojlanish va ahamiyat kasb etmoqda, uning bo'linishi maxsus ilmiy tayyorgarlikni, ko'p sonli ish o'rinlarini, odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini yuqori darajadagi integratsiyalashuvni va ijtimoiy farovonlikni oshirishni talab qiladigan ko'plab mutaxassislik va kasblarni yaratmoqda.

Ushbu tendensiyalar xizmatlar sohasi va boshqaruv bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson faoliyatining boshqa sohalariga nisbatan uning jadal o'sishini belgilaydi. Iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqori daromadi unga xos xususiyatdir. Shu bilan birga, xizmatlar ro'yxati doimiy ravishda kengayib bormoqda.


2020-yil 1-yanvar holatiga respublikada jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 398,1 mingtaga yetdi.



Xizmatlar sohasida jami 262,0 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2018-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 23,0 % ga oshdi.

2020-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 65,8 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: kuzatilayotgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 17,7 %, qurilish - 9,1 % ga yetdi va atigi 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.




2020-yil 1-yanvar holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (38,6 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,8 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,9 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 3,0 % ga teng bo'ldi.



Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.


Ma'lumot uchun: 2019-yil 1-yanvar holatiga, xizmatlar sohasida 213,1 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 33,3 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,3 %, tashish va saqlash - 6,2 %, axborot va aloqa - 3,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,2 %, boshqa turlar - 44,7 % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 48,9 mingtaga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019-yil 1-yanvar holatiga ularning soni 21,9 mingtaga ko'paydi.

Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



■ Sonining ko'payishi, ming birlik
■ Sonining o'sishi, %

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasida yuqori o'sish – 42,6 % kuzatildi.

Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 30,2 mingtaga ko'paydi va 101,1 mingtaga yetdi.


Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 29,4 %.

Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 5,8 mingtaga ko'paydi va 25,6 mingtani tashkil etdi.


2019-yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (61,0 ming birlik) o'tgan yilga nisbatan 29,2 mingtaga ko'paydi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni - 61,0 ming birlik
2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan: sonining ko'payishi - 29,2 ming birlikka, o'sish - 92,1 %



Xizmatlar sohasida band bo'lgan yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, ming birlik (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2018-yilning shu davriga nisbatan yangi tashkil etilgan savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning o'sishi 3,1 marta oshdi yoki 36,3 mingtaga yetdi.

Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar orasida o'sish kuzatilmoqda. Ularning soni 3,3 mingtaga ko'paydi va 7,2 mingtani tashkil etdi.

Shuningdek, boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar sonida nisbatan pasayish kuzatilmoqda. Ularning soni 0,2 mingtaga kamaydi va 11,4 mingtani tashkil etdi.

Joriy yilning o'tgan davri (2019-yil yanvar-noyabr oylari) bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 478 taga ko'paydi.



Savdo faoliyatida ularning soni 2 822 taga ko'paydi.

Bundan tashqari, boshqa faoliyat turidagi xizmatlarni ko'rsatadigan yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning o'sishi kuzatilmoqda. Ularning soni 774 taga ko'paydi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda yashash va ovqatlanish sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 517 taga ko'payishi qayd etildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

XXI asrning so'nggi o'n yilligida kichik tadbirkorlik sektorining o'rnini ko'p jihatdan yangi mahsulotlarni ixtiro qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish qobiliyati tufayli ortdi.


**2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida
kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida 76,3 % kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-yanvar holatiga yirik tashkilotlar ulushi 23,7 % ga yetdi.




● Kichik tadbirkorlik subyektlari ● Yirik tashkilotlar



2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 46 162 taga ko'paydi va 199 929 tani tashkil etdi, ularning o'sishi esa 30,0 % ga oshdi.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, trln. so'm




2019-yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4,9 trln. so'mga oshdi va 17,9 trln. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davriga nisbatan ularning hajmi 2,9 trln. so'mga ortib 13,3 trln. so'mga teng bo'lgan.

2019-yilning IV diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 54,8 trln. so'mni tashkil etdi, 2019-yilning III diskret choragiga nisbatan (51,4 trln. so'm), hajmi 3,4 trln. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2019 yilning III va II diskret choraklar o'rtasidagi farq 7,4 trln. so'mni tashkil etdi.




Ko'rilayotgan davrda bozor xizmatlari hajmi 2019 yilning I choragiga nisbatan 14,6 trln. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning mos davrini I chorak bilan taqqoslaganda, o'sish 10,1 trln. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 34,3 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



Bundan tashqari, eng katta ulush Toshkent (7,2 %), Samarqand (6,4 %), Farg'ona (5,9 %) va Andijon (5,1 %) viloyatlarida qayd etildi. Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (1,4 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,9 %) kuzatildi.


Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarini, hududlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi.

Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda hududlarning moliyaviy salohiyatini yuksaltirish va unda xizmatlar sohasining rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasidagi loyihalar bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytiradi.

Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (118,4 %), Jizzax (115,1 %), Xorazm (112,5 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (112,0 %) va Toshkent shahrida (117,2 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
o'sish sur'atlari, %
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



Nisbatan past o'sish sur'atlari Toshkent (107,7 %), Samarqand (108,9 %), Farg'ona (109,4 %) va Namangan (110,2 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
O'zbekiston Respublikasi *	190 356,0	112,5	5 668,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 584,6	112,0	2 964,0
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	9 730,1	110,7	3 141,6
Buxoro	8 163,9	110,6	4 275,4
Jizzax	4 181,7	115,1	3 058,6
Qashqadaryo	8 736,9	110,9	2 691,1
Navoiy	4 847,5	111,3	4 904,9
Namangan	7 442,9	110,2	2 675,5
Samarqand	12 271,1	108,9	3 196,9
Surxondaryo	7 469,2	111,5	2 873,2
Sirdaryo	2 621,9	118,4	3 128,1
Toshkent	13 740,2	107,7	4 705,7
Farg'ona	11 280,0	109,4	3 034,2
Xorazm	5 673,9	112,5	3 065,0
Toshkent shahri	65 308,8	117,2	25 703,0

^{*)} *Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda*

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Ko'rilayotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Toshkent shahrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 15 132,6 mlrd. so'mga oshdi va 65 308,8 mlrd. so'mga yetdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Toshkent (13 740,2 mlrd. so'm), Samarqand (12 271,1 mlrd. so'm), Farg'ona (11 280,0 mlrd. so'm) va Andijon (9 730,1 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 090,1 ming so'mga oshdi va 5 668,6 ming so'mga teng bo'ldi, uning o'sishi 10,4 % ni tashkil etdi.



Mamlakatimizda postindustrial axborot jamiyati shakllanishi bilan xizmatlar sohasining roli tobora oshib boradi, chunki aholining ehtiyojlari doimiy ravishda o'sib boradi va ularning xilma-xilligi doimiy ravishda kengayib boradi.


Xizmatlar sohasining rivojlanishi - jamiyatning muvaffaqiyatli ravnaq topishiga asosdir. Ijtimoiy ehtiyojlar tizimida yuz beradigan o'zgarishlar xizmatlar sohasining o'sish omili hisoblanadi. Texnika, texnologiya, ishlab chiqarish tuzilmalarining murakkablashishi, aholi turmush darajasining oshishi, shuningdek, insonning o'zini mukammallashtirishi, ya'ni ta'lim va

madaniyat darajasini oshirishi hisobiga ishlab chiqarish va aholi ehtiyojlari izchil ravishda kengayib boradi.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Toshkent shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Bu yerda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 25 703,0 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.



Namangan (2 675,5 ming so'm), Qashqadaryo (2 691,1 ming so'm) va Surxondaryo (2 873,2 ming so'm) viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi nisbatan past bo'ldi.



Aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu aholi soni hisoblanadi. Aholi soni kam bo'lgan hududlarda, aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi yuqori. Masalan, Navoiy viloyatida 2020-yil 1-yanvar holatiga aholining soni 988,3 ming kishini tashkil qildi, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida

aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 904,9 ming so'mga yetdi.

Ayrim hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlarni taqqoslash
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyatida aholining soni uch baravarga ko'p (3 246,6 ming kishi), lekin aholi jon boshiga xizmatlar hajmi atigi 2 691,1 ming so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasidagi aksariyat faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyati - bu mahalliy lashtirishning yuqori darajasi, ma'lum bir hududga (hudud, tuman, shahar va qishloq aholi punktlari) bog'liqligi hisoblanadi. Shu sababli, faoliyatning hajmi, joylashishi, faoliyat turlari va ko'lamlari, mulkchilik shakllari, korxonalar va xizmat ko'rsatish tashkilotlarining ish uslublari, ularning modernizatsiya qilishdagi roli va rivojlanish potentsiali mintaqa iqtisodiyotidagi innovatsion o'zgarishlarning ehtiyojlari, ustuvorliklari va strategiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Sirdaryo (12,7 %), Jizzax (10,6 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (10,3 %) va Toshkent shahrida (14,8 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (106,3 %), Samarqand (106,6 %), Farg'ona (107,5 %), Namangan (108,0 %), Andijon (108,6 %), Qashqadaryo (108,7 %) va Buxoro (108,9 %) viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmining o'sish sur'atlari, %
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



Bugungi kunda xizmatlar sohasi - zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tizimini tashkil etuvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmay, jamoat hayotidagi ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilib boradi va iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar bilan chambarchas bog'liqdir.




Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish omili, 2018-yilga nisbatan moliyaviy xizmatlar (13 338,7 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (9 417,1 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (7 949,9 mlrd. so'mga) va ta'lim sohasidagi (1 573,9 mlrd. so'mga) xizmatlar hajmining oshishi hisoblanadi.

Bundan tashqari, me'morchilik sohasidagi xizmatlar (1 085,4 mlrd. so'mga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1 042,6 mlrd. so'mga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (913,0 mlrd. so'mga), shuningdek sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (710,3 mlrd. so'mga) hajmining o'sishi kuzatildi.

Deyarli barcha hududlarda bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy va transport xizmatlari, savdo va aloqa xizmatlari, shu jumladan axborotlashtirish kabi xizmatlar ulushining o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 28,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (25,1 %), moliyaviy xizmatlar (18,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,7 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining tarkibi, %
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmining bir oz oshishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 % ga yetdi. Shuningdek kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,6 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar, shuningdek ijara xizmatlari - 2,1 % bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulush qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	190 356,0	112,5
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	10 869,2	108,0
Moliyaviy xizmatlar	34 635,0	154,6
Transport xizmatlari	53 576,5	105,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	25 279,1	103,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 715,9	105,6
Savdo xizmatlari	47 693,3	105,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	5 862,2	103,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	6 990,4	106,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 930,3	113,4
Ijara xizmatlari	3 952,3	104,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3 102,1	103,7
Shaxsiy xizmatlar	4 564,8	103,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	4 039,0	108,1
Boshqa xizmatlar	6 425,0	102,8

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (154,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (113,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (108,1 %) qayd etildi.

Yuqori bo'lmagan o'sish ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (3,1 %), shuningdek kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda (3,7 %) kuzatildi.




O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan va mintaqaning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaralarga ega bo'lgan yagona mamlakatdir: shimol va shimoliy-g'arbda Qozog'iston, Janubiy-g'arbda Turkmaniston, janubda Afg'oniston, janubiy-sharqda Tojikiston va sharqda Qirg'iziston.

Ushbu geosiyosiy omillar tufayli O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida muhim o'rin tutadi va mintaqaviy jarayonlarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonning geografik joylashuvining muhim xususiyati transport tarmog'ining rivojlangan tizimining mavjudligidir.


Ta'kidlash joizki, transport xizmatlari hajmining o'sishi, birinchi navbatda, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarning ulushi 11,6 %, yordamchi transport faoliyati esa – 8,1 % qayd etildi.

Ma'lumot uchun:
Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Logistika samaradorligi indeksi (LPI) bo'yicha 167 dunyo mamlakatlari orasida O'zbekiston 2,50 indeksi bilan 117-o'rinni egalladi.



Logistika mamlakat ichidagi va tashqarisida tovarlarning jismoniy harakatlanishini qo'llab-quvvatlovchi xizmat ko'rsatish tarmog'ini o'z ichiga oladi. Logistika samaradorligi indeksi (LPI) tovarlarni chegaralar bo'ylab qanday samarali harakatlanishi nuqta nazarida davlatlarni baholaydi.

Ushbu reytingda O'zbekistonning infratuzilmasini rivojlantirish darajasi 2,44 ni tashkil etdi, bu esa bizning mamlakatimizga 98-o'rinni egallash imkonini berdi. O'z vaqtida etkazib berish muddatiga rioya etish darajasi 3,01 (101-o'rin), shuningdek, logistika sifati va omilkorligi 2,49 (109-o'rin) deb baholandi.

(<https://lpi.worldbank.org/>)

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.



Yuk tashish bo'yicha xizmatlar

Yo'lovchi tashish bo'yicha xizmatlar

2019-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 70,1 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 29,9 % ni tashkil etdi.

Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Bir mamlakatning boshqa davlatlar bilan tovarlar importi va eksportidan iborat bo'lgan savdosi tashqi savdo, turli mamlakatlarning bir-biri bilan umumiy savdo-sotig'i xalqaro savdo hisoblanadi. Ma'lum bir davlat ichida savdo ijtimoiy zarur iste'molchiga tovarlarni yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 25,1 % ni tashkil etib, bu 47 693,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, %

(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uchini, aniqrog'i 67,2 % ga to'g'ri keladi.


2019-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 25,4 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo bo'yicha xizmatlarning eng katta ulushi Andijon (85,4 %), Qashqadaryo (83,8 %) va Buxoro (82,2 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining ulushi, %
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida ahamiyatsiz, uning ulushi 44,5 % ni tashkil etdi.


Biroq, Toshkent shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi - 46,8 %. Andijon viloyatida eng kichik ulush – 7,8 %.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Samarqand (9,8 %), Farg'ona (8,5 %), Toshkent (8,1 %) viloyatlarida, Toshkent shahri (8,7 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (7,1 %) qayd etildi.

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Surxondaryo (3,4 %), Qashqadaryo (4,7 %), Jizzax (5,2 %), Namangan (5,4 %) va Sirdaryo (5,5 %) viloyatlarida qayd qilindi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 34 635,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13 338,7 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 54,6 % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,0 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,5 % oralig'ida qayd etildi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas va u 3,5 % ni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: *hozirgi vaqtda O'zbekistonda muvofiqlikni baholash uchun ball to'plami mavjud:*

-ESG 4 "Fuqarolik huquqlari va erkinliklari" parametrlari bo'yicha, chunki Jahon bankining boshqaruv ko'rsatkichlari Fitch suveren reyting modelida eng yuqori ulushga ega reyting va reyting omillariga tegishli hisoblanadi.

- "Siyosiy barqarorlik va siyosiy huquqlar" ESG 5 parametri bo'yicha.

- "Qonun ustuvorligi, institutlarning sifati va korrupsiyani tartibga solish va nazorat qilish" ESG 5 parametri bo'yicha.

- ESG 4 "Kreditorlarning huquqlari" parametriga muvofiq, chunki qarzni to'lashga tayyorlik va to'lashga tayyorlik reyting va reyting omili uchun muhimdir.

Shu bilan birga, Fitch Ratings hisobotiga ko'ra quyidagilar tasdiqlandi:

- emitentning qisqa muddatli defolt reytingi "B" darajasida;

- milliy valyutadagi emitentning uzoq muddatli defolt reytingi "BB-" darajasida, prognoz "Barqaror";

- milliy valyutadagi emitentning qisqa muddatli defolt reytingi "B" darajasida;


- "BB-" darajasida mamlakatning eng yuqori darajasi;

- "BB-" darajasida uzoq muddatli ustuvor ta'minlanmagan reyting.

(<https://www.fitchratings.com/>).

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi Surxondaryo (92,8 %), Sirdaryo (92,3 %), Qashqadaryo (92,1 %), Samarqand (91,4 %), Jizzax (91,1 %), Farg'ona (91,0 %) viloyatlarida, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasida (93,6 %) va Toshkent shahrida (91,4 %) ahamiyatga ega. Eng past ko'rsatkich Andijon viloyatida (86,9 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



Hududlar o'rtasida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta xizmatlari hajmi Toshkent (9,5 %), Namangan (8,4 %), Xorazm (7,0 %), Navoiy (6,9 %) va Buxoro (6,8 %) viloyatlarida ustunlik qiladi.

Sug'urta xizmatlarining eng past ko'rsatkichlari Andijon (4,4 %), Samarqand (5,1 %), Surxondaryo (5,4 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi (4,7 %) va Toshkent shahrida (4,7 %) kuzatildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 10 869,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 108,0 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi - 10 869,2 mlrd. so'm



O'sish sur'ati - 108,0 %



Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi - 5,7 %




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 79,2 % ni tashkil etdi. Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari – 5,6 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar 7,6 %, axborotlashtirish xizmatlari – 3,0 %, dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 3,7 %,

televidenie dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar – 0,9 % ni tashkil etishi qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi - 5 913,0 mlrd. so'm. Buning sababi shundaki, ushbu hududda shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning aksariyati ro'yxatdan o'tgan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2019-yil yanvar-dekabr oylarida



Shu bilan birga, ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish bozor xizmatlarining nisbatan katta hajmi Farg'ona (663,8 mlrd. so'm), Samarqand (613,0 mlrd. so'm), Andijon (498,6 mlrd. so'm), Namangan (454,0 mlrd. so'm), Qashqadaryo (437,1 mlrd. so'm) va Buxoro (376,4 mlrd. so'm) viloyatlarida kuzatildi. Joriy davrda ushbu turdagi xizmatlarning eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (154,3 mlrd. so'm), Jizzax (202,6 mlrd. so'm) va Navoiy (219,8 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi, %
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

Telekommunikatsiya xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax (98,8 %), Samarqand va Sirdaryo (97,9 %), Andijon (96,9 %), Qashqadaryo (96,8 %), Xorazm (96,7 %), Navoiy (96,4 %) va Namangan (96,3 %) viloyatlarida qayd etildi.



Toshkent shahri – yetarli darajada rivojlangan axborot-kommunikatsiya infratuzilmasiga ega hududdir. Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda bu yerda kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar (13,4 %), nashriyotchilik xizmatlari (8,6 %), dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar (6,6 %), axborot sohasidagi xizmatlar (4,8 %), kino-videofilmlar va televidenie dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar (1,4 %) da eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lib, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida esa telekommunikatsiya xizmatlari ulushi Toshkent shahrida nisbatan past bo'lgan, bu 65,2 % ni tashkil etdi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.



Ta'lim sohasidagi xizmatlar




O'sish 1 573,9 mlrd. so'mga

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 6 990,4 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 3,7 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi bozor xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2 871,3 mlrd. so'mga yetdi. Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu yerda joylashganligidadir.

**Hududlar kesimida ta'lim sohasida
ko'rsatilgan bozor xizmatlari, mlrd. so'm
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori hajmi Samarqand (584,2 mlrd. so'mga) Farg'ona (460,9 mlrd. so'm), Buxoro (455,0 mlrd. so'm) va Andijon (405,6 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Ushbu turdagi xizmatlarning eng kichik ko'rsatkichi Sirdaryo (120,1 mlrd. so'm) va Navoiy (164,0 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Ma'lumot uchun: bugungi kunda "Kundalik.uz" elektron tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Tizim onlayn tarzda o'qituvchilarni darslarini rejalashtirish, dars jadvallarini tuzish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va davomatini elektron jurnal va kundaliklarda qayd etib borish imkonini beradi. Shu bilan birga, onlayn rejimda uning yordami bilan ota-onalar farzandlarining o'zlashtirish darajasini kuzatishi, direktorlar, o'qituvchilar va bir-birlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lishlari mumkin. Shuningdek, o'quvchilar AKT sohasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirib, turli xil yo'nalishdagi guruhlarini tashkil qilish imkoniyatiga ega.

Bundan tashqari, ushbu tizim ta'lim muassasalari va ta'lim muassasalarini boshqaruv organlariga statistik hisobotlarni shakllantirish vositasidir.

Shu bilan birga, o'quv jarayonini boshqarishning axborot tizimi (EMIS) joriy etildi va maktablar, o'qituvchilar va xodimlar, shuningdek o'quvchilar va ota-onalarning yagona ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bundan tashqari, o'quvchilarni qabul qilish, bir maktabdan boshqasiga ko'chirish va boshqa elektron xizmatlar ko'rsatish uchun elektron tizim ishlab chiqildi.

[\(https://kundalik.com/\)](https://kundalik.com/)

O'tgan yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 105,6 % ni tashkil etdi, hajmi esa 1 042,6 mlrd. so'mga oshdi va 5 715,9 mlrd. so'mga yetdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %

(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 77,5 % bilan ustunlik qiladi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 22,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Toshkent shahrida – 2 602,9 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yilga nisbatan 495,4 mlrd. so'mga oshishi kuzatildi.



Buning o'sishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, ularning hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 345,8 mlrd. so'mga ko'paydi.

Kuzatilayotgan davrda Sirdaryo viloyatida ushbu xizmatlarning uncha yuqori bo'lmagan miqdori 56,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018-yilga nisbatan hajmning o'sishi atigi 10,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Hozirgi kunda mamlakatda tibbiyot va sog'liqni saqlash bir xil yo'nalishda mustaqil O'zbekiston fuqarolarining hayot darajasi va sifatini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan dinamik o'zgarishlar bilan rivojlanmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.


Bugun respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy rehabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziologiya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.



2019-yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 710,3 mlrd. so'mga oshdi va 2 930,3 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha yetakchi o'rinni Toshkent shahri egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 367,3 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 43,0 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlar ulushini taqqoslanishi, %




Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Toshkent (9,6 %), Farg'ona (7,8 %), Samarqand (6,1 %), Andijon (5,7 %), Namangan (5,3 %) va Buxoro (5,1 %) viloyatlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi xizmatlarning ulushi nisbatan katta bo'lmagan hududlar Sirdaryo (1,3 %) va Navoiy (1,8 %) viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

Surxondaryo viloyatida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi past (2,8 %) bo'lishiga qaramay, ularning o'sishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori - 15,8 %. Shu bilan birga, ushbu turdagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Andijon (114,0 %), Namangan (113,1 %) va Toshkent shahrida (118,5 %) qayd etildi. Ushbu davrda past o'sish sur'atlari Qashqadaryo (106,1 %), Samarqand (108,3 %), Sirdaryo (108,7 %), Buxoro (109,1 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (102,1 %) qayd etildi.



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tuzilmaviy moslashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hal qiluvchi shartdir.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

Albatta, yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiya, soliq va pul-kredit davlat siyosati, ilmiy-texnikaviy ishlarni takomillashtirish, shuningdek, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida sifati tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

71-230-80-59